




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI

**ONA TILI FANI
2021-2022-O‘QUV YILI
IMKONIYATLARI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB VA
MAKTAB- INTERNATLARNING 11-, 12-SINF O‘QUVCHILARI
UCHUN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O‘TKAZISH
BO‘YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



TOSHKENT – 2022

2021-2022-o‘quv yili uchun



Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining navbatdagi ilmiy-metodik kengashida muhokamaga qo'yilib, tavsiya qilindi. **(2022-yil 25-martdagi 1-son Ilmiy-metodik kengash qarori).**

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarining 11-, 12-sinf o'quvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijorat maqsadida ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari metodbirlashmalari tomonidan yakuniy nazorat imtihon materiallariga 15–20% gacha o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Tuzuvchilar:

M.Ataxodjayeva–Toshkent shahar, M.Ulug'bek tumanidagi 101-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

M.Boqijonova–Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

YAKUNIY NAZORAT IMTIHONLARINI O'TKAZISH TARTIBI

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning bitiruvchilari yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Ijodiy bayonda ko'proq badiiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog'liqlik to'g'risidagi mavzular yoritiladi.

O'quvchilar bayonning quyidagi turlari bo'yicha **ijodiy bayon** yozadilar:

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish;
- Boshlab berilgan matnni o'z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish;
- Matn shaxsini o'zgartirib ijodiy bayon yozish;
- Grammatik topshiriqli ijodiy bayon yozish.

Bayon matnlari 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo'lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosida topshiriq beriladi. Bir o'quvchi 3 ta konvertdan bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo'yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan (200 - 210 ta so'zdan iborat bo'lgan) ijodiy bayon matni og'zaki va daktil nutqda ikki (lozim bo'lsa uch) marta o'qib eshittiriladi. O'quvchilar eshitgan matni yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida (180 - 200 ta so'zdan iborat bo'lgan) 2 - 2,5 bet bo'lishi lozim.

IJODIY BAYON YOZISH UCHUN 180 DAQIQA BERILADI.

Ijodiy bayon matnlari o'qituvchi tomonidan tanlanadi va ta'lim muassasi metod birlashmasida muhokama qilinib ma'qullanadi. Ma'qullangan materiallar ta'lim muassasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.



BAYON QUIYIDAGI MEZONLAR ASOSIDA BAHOLANADI:

№	Mezonlar	Ball
1	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; bayon mantiqli va muntazam bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubiy adabiy til talablariga mos bo'lib, mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa	5
2	Matn reja asosida yoritilib, fikr bayonida muntazamlilik qisman berilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada ikki-uch kamchilik bo'lib, savodxonlikda uchtagacha imlo, uchtagacha ishorat va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa	4
3	Mavzu to'liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqelik izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda to'rttagacha imlo, to'rttagacha ishorat, uchtagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa	3
4	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada besh-oltitagacha xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda yettitagacha imlo, yettitagacha ishorat va yettitagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa	2
5	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada, savodxonlikda o'ndan ortiq xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa	1

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIM MUASSASALARI UCHUN IJODIY BAYON MAVZULARIDAN NAMUNALAR

1-VARIANT NEGA KITOB O'QIMAYMIZ?

Har kim ham kitob o'qishni yoqtiravermaydi. Bundaylar boshiga tashvish kelsa, tushkunlikka tushib qoladi. Ammo kitob o'qisa, bunday bo'lmaydi. Chunki kitob insonga ilm, martaba bilan birga umid ham beradi. Bir do'stim algebra fanidan "2" baho oldi. Bu uning birinchi "ikki"si bo'lgani uchunmi, juda qattiq xafa bo'ldi. Negadir o'qishga ishtiyoqi qolmadi. Bu hol meni qattiq tashvishga soldi. Do'stinga biroz ovunsin deb O'tkir Hoshimovning "Ikki karra – ikki besh" qissasini sovg'a qildim. Uch kun o'tib, u yonimga kelib: "Sen menga ajoyib kitob sovg'a qilibsiz. Demak, hamma narsaning iloji, imkoni bor! Faqatgina odam harakat qilsa, yuqoriga intilsa, kifoya ekan", – dedi xursand bo'lib. Shundan so'ng do'stim o'qishga jon-jahdi bilan kirishib ketdi. "Ikki karra – ikki besh" qissasi hajviy tarzda yozilgan bo'lsa ham, asarning mazmun-mohiyati juda jiddiy, real voqealarga asoslangan. Qissada "Inson agar harakat qilsa, umid qilsa va doimo yaxshilik tomonida bo'lsa, albatta, o'z maqsadiga erishadi" degan g'oya bor.

Tengdoshlarim bilan kitob o'qishni yoqtiramiz. Kutubxonaga o'quv yili davomida ko'p marotaba kirib, turli ma'lumotlar olib chiqamiz. Maktabimiz kutubxonasida kitoblar juda ko'p. Kutubxonaga kirgan o'quvchi o'ziga kerakli bo'lgan kitob yoki ma'lumotni topa oladi. Maktab darsliklarida mashhur yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodi bilan tanishamiz. Darslikda roman, qissalarning juda qisqa, eng qiziq joyini berishadi. Maqsad – bolalarni shu asarga qiziqtirish.

Kitobga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish uchun kitoblarga ham reklama zarur. Har bir o'quv muassasasiga kirishda yangi nashr etilgan kitoblardan namunalar qo'yib, ularni qayerdan topish mumkinligi, kitob nima haqida ekani to'g'risida qisqacha ma'lumot berish kerak. Yana, kitobning narxi arzonroq bo'lsin! Yaxshi kitob falon pul turadi. O'zimdan misol, tug'ilgan kunimda oyim bilan kitob do'konlarini aylandik. Oyim menga Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini olib bermoqchi edilar, ammo kitobning narxi qimmatligi uchun olib bera olmadilar. Shuning uchun ham kitoblar qancha arzon bo'lsa, kitobxonlar soni shuncha ortadi deb o'ylayman.

(282 ta so'z)

2-VARIANT

BIR YULDUZMI YOKI BESH YULDUZ?

Dunyo bo'ylab sayohatga chiqishni orzu qilmaydigan bola bo'lmasa kerak. Bilasizmi, sayohatga chiqqan odam birinchi navbatda nima haqida o'ylaydi? Albatta, o'zi uchun eng mos mehmonxonani topish haqida. Sayyohlar odatda qulay, shinam, muhimi hamyonbob mehmonxonalarni qidirishadi. Bu borada sayyohlarga oson bo'lishi uchun, butun dunyoda 1 tadan 5 tagacha bo'lgan "yulduz"lar joriy qilingan. "Yulduz"larning soniga qarab mehmonxonaning shinamlik darajasini va undagi xizmatlarning sifatini bilib olish mumkin.

"Bir yulduzli" mehmonxona "Uxlab dam olishim uchun bitta karavot kifoya" deguvchilar uchun mos keladi. Mehmonxonada xojatxona va yuvinish xonasi umumiy bo'ladi. Bu "bir yulduzli" mehmonxonalar yomon degani emas. Har bir xonada rakovina, oyna va toza sochiq bo'lishi shart. Eng asosiysi, "bir yulduzli" mehmonxona juda ham arzon bo'ladi.

"Ikki yulduzli" mehmonxonaning "Bir yulduzli"dan farqi, ularda nonushta beriladi. Bundan tashqari, mehmonlar kiyimlarini yuvish va dazmollab olishi uchun sharoit bo'ladi.

"Uch yulduzli" mehmonxonalar dunyodagi mehmonxonalarning asosiy qismini tashkil qiladi. Odatda, sayyohlar ham ko'pincha ularni tanlaydi. Sababi "uch yulduzli" mehmonxonalar ham arzon, ham juda shinam bo'ladi. Bunday mehmonxonaning har bir xonasida hojatxona, dush, konditsioner, televizor va muzlatkich bo'lishi shart. Yana umumiy foydalanish uchun kompyuter xonasi va internet, avtomobillar turar joyi bo'ladi.

"To'rt va besh - yulduzli" mehmonxonalar orasidagi farq unchalik katta emas. Ularning ikkisi ham mehmonlarga eng yuqori darajadagi xizmatlarni taklif qiladi. Ular restoran, sport zali, basseyn va go'zallik saloniga ega. Har bir xonada hojatxona, dush, konditsioner, televizor va muzlatkich bilan birga telefon ham bo'ladi. Muzlatkich doim mazali yegulik va ichimliklar bilan to'la turadi. "Besh yulduzli" mehmonxonalarning farqli jihatlari:

- derazadan shaharning go'zal manzarasi ko'rinib turadi;
- mehmonxona xizmatchilari turli tillarda gaplasha oladi;
- restoranidagi taomlari juda noyob va mazali bo'ladi;
- mehmonga shaxsiy haydovchi beriladi.

Qolgan xizmat va qulayliklarni yaratish mehmonxona egalarining fantaziyasiga bog'liq.

(262 ta so'z)

3-VARIANT

O'RMON SHIFOKORLARI

Hech o'rmon shifokorlari haqida eshitganmisiz? O'rmonning ham shifokori bo'lar ekanmi, deb hayron bo'layotgan bo'lsangiz, bu maqolamiz aynan siz uchun.

O'rmondagi daraxtlarning tanasiga turli zararkunanda hasharotlar hujum qilib turadi. Ko'pincha bunday zararkunanda hasharotlar daraxt po'stlog'i ostida bo'lgani uchun biz ularni ko'ra olmaymiz. Zararkunandalar asta-sekinlik bilan daraxt tanasini yeb, unga qattiq ziyon yetkazadi. Bunday vaqtda daraxtlarga **qizilishton** yordamga keladi. U o'tkir ko'zlari va mustahkam tumshuqlari yordamida hasharotlarni birma-bir tutib yeydi. Shu bois ham ularni "o'rmon shifokorlari" deb ataymiz.

Qizilishtonni deyarli barchangiz ko'rgan bo'lsangiz kerak. Bu qush quyruq qismi qizil rangda bo'lgani sabab qizilishton nomini olgan. Daraxtlar quyruq o'sadigan joyda "taq..., taq..., taq..." etgan tovushni eshitib qolsangiz, bilingki, bu yerda qizilishton bor. Butun dunyoda ularning **220 dan ortiq turi** mavjud. O'zbekistonda esa **oqqanot qizilishtonning** ikkita turi mavjud.

Ko'pchilik qushlar havoda ucha olgani bilan daraxt tanasi bo'ylab yuqoriga harakatlana olmaydi. Ammo qizilishton daraxt tanasida bemalol yerda yurganday yuqoriga harakat qilaveradi. Chunki uning oyoq panja barmoqlarining ikkitasi orqaga, ikkitasi esa oldinga qaragan.

"O'rmon shifokorlari" haqiqatan ham juda foydali qushlar bo'lib, ular bir martada daraxt tanasidagi **1000 tagacha** hasharotni terib yeyishi mumkin. Po'stloq ostidagi hasharotlarni terib yeyishda ularga uzun va yopishqoq tili ham qo'l keladi.

Bu qushlar daraxtdagi kovaklarga in qurishadi. Odatda tayyor kovaklardan foydalanishadi, ba'zan bunday kovaklarni tumshuqlari bilan hosil qilishadi. Ona qizilishton 2 tadan 12 tagacha tuxum qo'yadi.

Dunyodagi eng yirik qizilishton bu **amerika qirol qizilishtoni** bo'lib, uning bo'yi 55 cm ni, eng kichik tur **pakana qizilishtonning bo'yi** esa atigi 8 cm ni tashkil etadi.

Bu qiziq!

Qizilishtonlar odatda ovoz chiqarmaydi. Lekin ularni daraxt tanasini "taqillatishidan" tanib olish mumkin. Ular tumshug'ini daraxt tanasiga bir soniyada **20 - 25 marta** ura oladi. Agar boshqa qushlar shunday tezlikda qattiq jismga tumshug'i bilan ursa bormi, miyasining "qatig'i" chiqib ketishi aniq.

(277 ta so'z)